

BADIIY ASARDA – SYUJET MASALASI

Mo'siddinova O'g'iloy

FarDU "Adabiyotshunoslik" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lgan, badiiy asarlarda syujet mavzusi bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Hikoya, obraz, portret, syujet, ijodiy yondashuv, ichki olam, lug'at, nazariy qarashlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены мнения по теме сюжета в литературных произведениях, вызвавшей множество споров и дискуссий в литературоведении.

Ключевые слова: Рассказ, образ, портрет, сюжет, творческий подход, внутренний мир, лексика, теоретические воззрения.

ABSTRACT

This article presents opinions on the topic of plot in literary works, which has caused many debates and discussions in literary studies.

Key words: Story, image, portrait, plot, creative approach, inner world, vocabulary, theoretical views.

KIRISH

Adabiyotshunoslik lug'atlarida syujet fransuzcha predmet, asosga qurilgan narsa kabi ma'nolarda qo'llanilishi aytib o'tilgan. „Syujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi”¹. O'zbek adabiyotida syujet va uning elementlari I.Sulton, M.Qo'shjonov, A.Rahimov, T.Boboyev, H.Umurov, D.Quronov kabi bir qator adabiyotshunoslar tomonidan tahlilga tortilgan. Akademik I.Sulton asar syujeti to'g'risida quyidagicha fikrlarini bayon qilgan “badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o'zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari, umuman kishilar o'rtasidagi, u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o'sishi tashkil topib borishidir”². Darhaqiqat, tadqiqotchi syujetni konflikt bilan uyg'un holda kelishiga urg'u beradi. Olim T.Boboyev esa “adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmui, kengroq ma'noda, konkret voqealar tizmasida namoyon

¹ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Тошкент. Akademnashr, 2013. – Б.288.

²Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent., 2005.–Б.108.

bo'ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg'ular oqimi"³, deya ta'riflaydi. Adabiyotshunos D.Quronov "badiiy asarda uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti- harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatad"⁴ - deb izohlaydi. Syujet ustida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim A.Rahimov "syujet bu kitobxonni muayyan muhitga olib kiradigan, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini ko'rsatadigan voqealar sistemasidir"⁵ - deydi. E.Xudoyberdiyev "syujet deganda asardagi voqealar tizmasi tushuniladi, "syujetli asar"larda yaxlit hayot manzarasi bilan bog'liq holda biron muhim ijtimoiy ziddiyat badiiy tadqiq etiladi",⁶. H.Umurov "syujet deganda, asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to'qnashuvlar, o'sish-o'zgarishlar tushuniladi"⁷, - deb ta'kidlaydi. A.Ulug'ov esa, "asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi syujetdir"⁸, - deya izohlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Syujet to'g'risida adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisini takrorlaydi va qisman to'ldiradi. Umumiy holda adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlarini xulosalaganda, syujet deb, "badiiy asarda personajlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari, xatti-harakatlari, ziddiyatlari, ulardagi xarakterlarning o'sishi va o'zgarishlari, ularning bir-birini yoqtirish yoki yoqtirmasligi, fikr-tuyg'ularidan iborat bo'lgan voqealar tizimi (silsilasi), voqealar oqimi", - degan xulosaga kelish mumkin.

Syujet o'zining mohiyati jihatdan yaxlit bir butunlik hisoblanadi, tabiiyki u butunlik sifatida turli qism(unsur, element)lardan tashkil topgan.

Asarda tasvirlangan hayotiy konfliktning vujudga kelishi, rivojlanishi, yakun topishi, boshqacha qilib aytganda, xarakterning o'sishi, rivojlanishi syujet qurilishining asosiy elementlari deyishimiz mumkin.

Bir guruh olimlar (I.Sulton, D.Quronov, A.Ulug'ov) o'z qarashlarida syujetning beshta element(ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim)dan tashkil topgan desalar, ikkinchi guruh olimlar (H.Umurov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, Z.Rahimov) esa syujetni yettita element(prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kuminatsiya, yechim, epilog)dan tashkil topadi, deb ko'rsatadilar.

³Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент., 2002. –Б.108.

⁴Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent., 2004. –B.163.

⁵Rahimov A. O'zbek romani poetikasi, 1993. –B.21.

⁶Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent., 2008. –B.56.

⁷Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, Toshkent., 2004. –B. 122-123.

⁸Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent., 2018. –B.76.

Adabiyotshunos D.Quronov prolog va epilogni ko‘proq kompozitsiyaga aloqador element sifatida oladi, buning asosiy sababi etib ularni syujetga bevosita aloqador emasligini ko‘rsatadi

Deyarli barcha syujetning asosiy elementlari syujet qurilishida turli xil shaklda, ko‘rinishda berilishi mumkin ba‘zan bu zanjirning ba‘zi qismi o‘tkizib yuborilishi (tashlab ketilishi) mumkin. Biz uchun asosiy syujet tugunlarini belgilashda shunchaki tasvirlash, nom berish, asarning u yoki bu qismini ekspozitsiya yoki tugun sifatida belgilash muhim emas, biz uchun eng avvalo, ularning aniq mazmuni, ya’ni yozuvchi qanday voqea, ijtimoiy munosabatlarning qaysi qismini tugun, kulminatsiya sifatida bog‘lashi muhim ahamiyatga ega.

Syujet qurilishi va ularni tiplarga ajratish masalasida adabiyotshunoslarining nazariy qarashlarida turlichalikni kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotshunos A.Rahimov o‘zining “O‘zbek romani poetikasi” (syujet va konflikt) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu masalaga atroflicha yondashgan holda tadqiqot olib borgan bo‘lib, syujetning 4 xil: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ shakllari mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadi. Adabiyotshunos T.Boboyev syujetni to‘rt turga: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ syujetga ajratadi. Bunda adabiyotshunos A.Rahimov qarashlarini asos qilib oladi.

O‘zbek adabiyotshunosi H.Umurov syujetni uch turga: xronikali, konsentrik va xronikal-konsentrik syujetga ajratadi. H.Umurov “xronikal-konsentrik syujetda bir nechta yo‘nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog‘lanadi, hayot panoramasi keng va chuqur tahlil etiladi” – deb ta’riflaydi. D.Quronov o‘z qarashlarida syujet voqealarining o‘zaro munosabatiga ko‘ra ikki turga: xronikali va konsentrik syujetga ajratadi. Syujet tiplarini izohlarkan A.Rahimov konsentrik syujetni “tadqiqot syujet” deb ataydi. Unda voqea hikoya qilinmaydi, o‘tmishga ham murojaat etilmaydi, biror hodisa sabablarini tahlil qilish jarayonida sodir bo‘lgan voqealar kitobxon ko‘z o‘ngida jonlanadi deb izohlaydi. E. Xudoyberdiyev esa, besh turga: xronikali, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ, sintetik kabi syujetga ajratadi.

Ko‘rib turganimizdek, syujetning tiplari xususidagi qarashlardagi bunday turlichalik qisman nazariy asosga ega. Bir narsani unutmasligimiz kerakki, badiiy asarlarda syujetning quyidagi tiplari sof holda uchramaydi, uni badiiy asardan sof holda qidirish esa yuqoridagi nazariy qarashlar singari qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Asar voqealari qahramonlar qiyofasi va xarakterini shakllantirmaydi, yoki tayyor obraz va xarakterlar asar syujetini yaratib bermaydi. Balki voqelik va qahramon, vaziyat va xarakter mutanosib ravishda biri ikkinchisini to‘ldirgani holda

rivojlanib, shakllanib boradi. Bu yozuvchining asar syujetini yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos uslubi bo'lib, voqelikning jonli, hayotiy va ta'sirchan talqinini yuzaga keltiradi.

Adibning syujet yaratish mahorati haqida umumiy tarzda xulosa qiladigan bo'lsak, u asar syujetiga o'zi yaxshi biladigan, hayotda ko'rgan, kuzatgan, mukammal o'rgangan voqealarni asos qilib oladi. Qahramon tanlashda ham aynan shu yo'ldan boradi. Hikoyalarda voqealar tafsilotidan ko'ra unga nisbatan adibning tahliliy munosabati ustunlik qiladi. Yozuvchining ayrim hikoyalarida syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxonning qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa yechim salmoqli ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. –185-бет.
2. Хайриддин Султон. Уч юз олтмиш тўрт кун. –Тошкент: „O‘zbekiston“, 2019. –97-bet. (Bundan keyin ham shu manbadan misollar olinadi va sahifasi ko‘chirmadan keyin qavs ichida berib boriladi.)
3. Гегел. Эстетика. 1-том. –М: Искусство, 1969. 245-бет.
4. Бобохонов М. Рухий ҳолат тасвирида қаҳрамон портретининг ўрни// „Ўзбек тили ва адабиёти“ . – 2010-йил, 3-сон. –53-бет.
5. Хайриддин Султон. Уч юз олтмиш тўрт кун. –Тошкент: „O‘zbekiston“, 2019. 97-bet. . (Bundan keyin ham shu manbadan misollar olinadi va sahifasi ko‘chirmadan keyin qavs ichida berib boriladi.)
6. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322.
1. Jo‘rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(7), 452-454.
2. Jo‘rayev, H., & Anvarova, D. (2022). Investitsiya, investitsion muhit, jozibadorlik, investorlar huquqi, Investitsiya kodeksi, investitsion ombdusman, moliyalashtirish manbalari, to ‘g ‘ridan-to ‘g ‘ri investitsiyalar, mahalliy investitsiya. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 329-332.
3. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION.
4. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O ‘ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO JURNALI*, 2(2), 777-785.